ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

Uzbekistan: Language and Culture 2025/2
ISSN 2181-922X 70 — 79

IBORALAR KOMPONENTLARI TAHLILI: O‘TIL (6 JILDLI; 2022) MATERIALLARI ASOSIDA

Islom Bo‘riyev [1]

Abstrakt

Mazkur maqolada O‘zbek tilining izohli lug‘ati (6 jildli; 2022) materiallari asosida iboralarning komponent tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda iboralar shakliy-struktur jihatdan tahlil qilinib, ularning komponentlar miqdori (ikki komponentlidan to‘qqiz komponentligacha), grammatik bog‘lanish usullari va tarkibidagi so‘z turkumlari aniqlangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘TILdagi iboralarning 80% ini fe’l iboralar, 12% ini sifat iboralar, 7% ini ravish iboralar va qolgan qismini ot iboralar tashkil etadi. Iboralar asosan ot+fe’l, ot+sifat, ot+ot, sifat+fe’l kabi qoliplarda shakllangan bo‘lib, ko‘p komponentli iboralar gapga teng kelishi xususiyati bilan ajralib turadi. Maqolada ibora komponentlarining o‘zgarishi (so‘z tushishi yoki qo‘shilishi, grammatik qo‘shimchalarning qo‘shilishi) ularning semantikasiga ta’siri haqida ham qisqacha fikr yuritilgan. Bundan tashqari O‘zbek tilida iboralarni izohli lug‘atlarga kiritish va lug‘aviy tavsifi tizimini shakllantirish uchun mavjud lug‘atlar tahlili asosida 11 ta o‘lchov-mezon ishlab chiqilib, mazkur mezonlar iboraning ma’no yaxlitligi, qo‘llanish faolligi, uslubiy mansublik, sinonim va antonim munosabatlari, tarkibiy barqarorlik, etimologik asoslari, illyustrativ misollar bilan ta’minlanganligi, grammatik modeli, polisemantiklik darajasi, variantliligi hamda qo‘llanish doirasi kabi jihatlarni qamrab olganligi izohlangan.

Kalit so‘zlar: birikma ibora, gap ibora, ot+fe’l, ot+sifat, ot+ot+fe’l tipidagi iboralar.

Dunyo tilshunosligida XX asrning 40-yillaridan alohida soha sifatida shakllangan frazeologiya doirasidagi dastlabki tadqiqotlar

[1]**Islom Bo‘riyev –** Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
E-mail: islomboriyev122@gmail.com
ORCID ID. https://orcid.org/0009-0000-2552-6365
Iqtibos uchun: Bo‘riyev I.E. 2025. *“Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida”,* O‘zbekiston. til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 70-79. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/NGAR1493

iboralarni batafsil tasniflash, yagona terminologiyani ishlab chiqishga qaratilgan. Ayni davrga kelib, frazeologiyaning amaliy muammolari, ya’ni frazeografiya va frazeologiyani o‘rgatish birinchi o‘ringa chiqqan bo‘lsa-da, frazeografiya sohasi – frazeologik birliklarni lug‘atlarga kiritish va ularning berilishiga oid tavsiflar ishlab chiqilmagan. Bu esa frazeografiya sohasida amalga oshiriladigan tadqiqotlarning dolzarbligini taqozo qiladi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya va frazeografiya masalalariga oid ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, izohli lug‘atlarda frazeologik birliklarga tavsif berishning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Xususan, iboralarning lug‘atlardagi taqdimoti, ularga tavsif berish usullarining aniqligi, frazeologik birliklarni tanlash mezonlari va ashyoviy (illyustrativ) misollarni keltirishga oid tamoyillar hozirgi kungacha to‘liq belgilab olinmagan. Mazkur masalalar o‘zbek lug‘atchiligida ushbu yo‘nalishlarni yanada chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, lug‘atlarda iboralar berilishi, xususan, tavsifning muayyan sohalar asosida tahlil qilinishi va o‘zbek tilining izohli lug‘ati uchun iboralarni tanlab olish bo‘yicha umumiy ilmiy tamoyillarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalar qatorida turadi.

Iboralarning struktur tuzilishi muhim hisoblanadi, chunki iboraning semantik ma’nosini ochishda ularning o‘rni katta. Shu sababli ham biz olti jildli O‘TILda mavjud iboralarning shakliy-struktur tuzilishiga alohida e’tibor qaratishni lozim topdik.


A.Mamatov, B.Boltayevalarning “Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi” monografiyasida “hozirgi o‘zbek tilida frazeologizmlarning ikki komponentlidan o‘n komponentli va undan ziyod komponentli bo‘lishi mumkin” [Mamatov 2018]ligi ta’kidlangan. Biz tahlilga tortgan O‘TILda esa ikki komponentlidan to‘qqiz komponentligacha bo‘lgan iboralar mavjudligi aniqlandi. Jumladan, *“ichidan pishgan”, “ko‘ngli aynimoq”* ikki komponentli; *“kulini ko‘kka sovurmoq”, “hafsalasi pir bo‘lmoq”* uch komponentli; *“ikki qo‘lini burniga suqib”, “yuragi orqasiga tortib ketdi”* to‘rt komponentli; *“ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq”, “itdan bir suyak qarzi bor”* besh komponentli; *“biri bog‘dan kelsa, biri tog‘dan kelmoq”, “bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq”* olti komponentli; *“osmonga chiqsang oyog‘ingdan tortaman, yerga kirsang – qulog‘ingdan”* yetti komponentli; *“yuz joyiga pichoq ursang, bir joyidan qon chiqmaydi”* sakkiz komponentli; *“bir terining ichida qo‘y necha ozib, necha marta semiradi”* to‘qqiz komponentli va shu kabilar. Bunday ko‘p komponentli iboralar, asosan, gapga teng bo‘ladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (6 jildli; 2022)dagi iboralar

komponent miqdori jihatdan tahlil qilinganda quyidagi statistik ko‘rsatkich kelib chiqdi (1-jadvalga qarang):

1.jadval.

6-jildli O‘TILdagi komponent miqdori bo‘yicha statistikasi



Iboralar tarkibidagi komponentlar turli xil so‘z turkumlaridan yoki bir xil so‘z turkumlaridan ham tashkil topadi: *ko‘ngil bermoq, yaxshi ko‘rmoq, jazosini bermoq, qulog‘im sizda, do‘ppisi yarimta.* Shuningdek, mustaqil so‘z turkumlaridan tashqari yordamchi so‘z turkumlari ham ishtirok etishi mumkin: *yer bilan osmoncha, jonim bilan.*

Iboralarning ichki semantik xususiyatlaridan va prof. Sh.Rahmatullayevning ilmiy qarashlariga tayanib, ularni yuqorida ta’kidlanganidek, fe’l ibora, sifat ibora, ravish ibora hamda ot iboralar kabi turkumlarga ajratildi. Quyida ularning struktur tarkibini birma-bir ko‘rib chiqilgan.

I. Fe’l iboralar. Olti jildlik O‘TILdagi mavjud iboralarning asosiy qismi ya’ni 80%ini fe’l iboralar tashkil qiladi. Fe’l iboralar ko‘p qismi birikmaga teng iboralar hisoblanib, asosan ikki komponentdan to‘qqiz komponentli bo‘lgan iboralar aniqlandi.

1. Ikki komponentli fe’l iboralar. Fe’l iboralarning asosiy qismi ikki komponentli birikmaga teng iboralardir. Quyida asosiy qoliplarni ko‘rib o‘tamiz:

1.1. ot+fe’l tipidagi fe’l iboralar. Asosiy tayanch komponent fe’l bilan, tayanch bo‘lmagan komponent esa ot leksema bilan ifodalanadi: *jin urmaydi, jon kirmoq, ko‘ngil bermoq, ko‘ngil so‘ramoq, ko‘z urishtirmoq.*

1.2. ot+o‘timli fe’l tipidagi fe’l iboralar. Tayanch a’zo o‘timli fe’l bilan, notayanch a’zo esa nisbatlovchini olgan tushum kelishigi

shaklidagi ot bilan ifodalandi: *zahrini sochmoq, zavqini keltirmoq.*

1.3. ot+o‘timsiz fe’l tipidagi fe’l iboralar. Tayanch a’zo fe’l bilan, notayanch komponent esa jo‘nalish, chiqish yoki o‘rin-payt kelishiklari shaklidagi ot bilan ifodalanadi: *xavotirga solmoq, xumordan chiqmoq, shamolga uchmoq.*

1.4. ot+nisbatlovchi+fe’l tipidagi fe’l iboralar. Tayanch komponent fe’l bilan, notayanch komponent nisbatlovchi (egalik shakllaridan birini) olgan ot leksema bilan ifodalandi. Bular asosan gap iboralardir: *uyqusi qochdi, uyi kuydi, yostig‘i quridi, yuragi toshdi, og‘zi bormaydi, ovi yurishdi, zardasi qaynadi.*

1.5. sifat+fe’l tipidagi fe’l iboralar. Bunday komponentli fe’l iboralarda tayanch a’zo asosan o‘timli fe’l bilan ifodalanib, tayanch bo‘lmagan komponent sifat leksema bilan ifodalanadi: *yaxshi ko‘rmoq, yomon ko‘rmoq, ahmoq qilmoq.*

2. Uch komponentli fe’l iboralar. Uch komponentli fe’l iboralar ham anchagina bo‘lib, ular tarkibidagi komponentlar turli vositalar yordamida bir-biri bilan sintaktik aloqaga kirishadi.

2.1. ot+ot+fe’l tipidagi fe’l iboralar. Bunday tuzilishdagi iboralar tarkibidagi komponentlar asosan sintaktik shakl yasovchilar yordamida bog‘lanadi: *dunyoga ustun bo‘lmoq, dudi osmonga chiqdi, ajal to‘nini bichmoq, alifni tayoq deyolmaydi.*

2.2. Uch komponentli tarkibi har xil turkum bilan ifodalangan fe’l iboralar. *Hech baloni bilmaydi, besh barmoqday bilmoq, bir yoqli qilmoq, boshi gir-gir aylanmoq, arqonni uzun tashlamoq.* Tarkibi uch komponentdan tarkib topgan har xil turkumga oid leksemalardan iborat bu kabi iboralar bir-biri bilan grammatik jihatdan turli vositalar (ohang, kelishik) yordamida bog‘lanib ketaveradi.

3. To‘rt va undan ortiq komponentli fe’l iboralar. Bunday ko‘p komponentli fe’l iboralarning a’zolari asosan har xil turkumga oid so‘zlardan tashkil topadi hamda ular ham salmoqli miqdorni tashkil qiladi: *damiga ichiga tushib ketdi, besh barmog‘ini og‘ziga tiqmoq, boshiga davlat qushi qo‘ndi* (to‘rt komponentli); *ko‘rarga ko‘zi, otarga o‘qi yo‘q, burnidan chak-chak zahar tomadi* (besh komponentli); *biri bog‘dan kelsa, biri tog‘dan keladi, lof desa, ola qopni olib yuguradi, sut bilan kirgan jon bilan chiqadi* (olti komponentli); *boshini u yoqqa urmoq, bu yoqqa urmoq, to‘qayga o‘t ketsa, ho‘l-u quruq barobar yonadi, osmonga chiqsang, oyog‘ingdan tortaman, yerga kirsang – qulog‘ingdan, otilmagan sopqon ham boshga tegadi, ham ketga* (yetti komponentli); *yuz joyiga pichoq ursang, bir joyidan qon chiqmaydi* (sakkiz komponentli); *bir terining ichidan qo‘y necha ozib, necha marta semiradi* (to‘qqiz komponentli).

II. Sifat iboralar. O‘TILdagi mavjud iboralarning 12%ini

sifat iboralar tashkil qilib fe’l iboralardan keyin miqdor jihatdan ikkinchi o‘rinni egallaydi. Sifat iboralarning asosiy qismi gap iboralar hisoblanib, asosan ikki komponentdan yetti komponentligacha aniqlandi.

1. Ikki komponentli sifat iboralar. Sifat iboralari asosan ikki komponentli bo‘lib, ular ko‘pincha gapga teng iboralardan iboratdir. Komponent tarkibi asosiy modellari quyidagicha:

1.1. ot (nisbatlovchi)+sifat komponentli sifat iboralar. Bu kabi qolipdagi sifat iboralar O‘TILdagi sifat iboralarning asosiy qismini tashkil etib, tuzilishi jihatdan asosan gapga teng. Tayanch a’zo turli xususiyatni ifodalovchi sifat turkumidagi leksemalar bilan, notayanch a’zo esa bosh kelishikdagi nisbatlavchi shakllardan birini olgan ot turkumidagi leksemalar bilan ifodalandi. Ular ko‘proq shaxsning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi: *joni shirin, avzoyi buzuq, diydasi bo‘sh, dili qora, dili g‘ash, bag‘ri dog‘li, bag‘ri keng* va shu kabilar.

1.2. ot+sifatdosh komponentli sifat iboralar. Bu qolipdagi sifat iboralarning shakllanishida tayanch komponent o‘tgan zamon shaklidagi sifatdosh bo‘lib, notayanch komponent esa ot leksema bilan ifodalanadi: *ichidan pishgan, esini yegan, esi ketgan, gap ko‘tarmaydigan, go‘shti qochgan* va shu kabilar.

1.3. ot+ot komponentli sifat iboralar. Bunga o‘xshash qolipli sifat iboralar o‘ziga xos bo‘lib, birinchi a’zoda nisbatlovchi, keyingi a’zoda unga mos kelishik shakllaridan biri bo‘ladi. Grammatik jihatdan bu shakllar ibora tarkibidagi komponentlarni yaxlitlashda muhim hisoblanadi: *bag‘ri kabob, bag‘ri qon, gapga temirchi, dili qon, ammamning buzog‘i* va shu kabilar.

1.4. sifat +ot komponentli sifat iboralar. Ushbu qolipli sifat iboralar ko‘proq ohang yordamida sintaktik jihatdan bog‘lanadi. Ular ko‘proq inson fe’l-atvoriga xos xususiyat ma’nolarini anglatadi: *sof ko‘ngil, qattiq qo‘l, oq ko‘ngil, yumshoq ko‘ngil, past nazar, sovuq oyoq, shum oyoq* va shu kabilar.

1.5. Har xil turkum leksemalaridan tarkib topgan ikki komponentli sifat iboralar. *Joni (jon) bor, joni (jon) yo‘q, jahli (achchig‘i, fe’li) tez* va shu kabilar.

2. Uch komponentli sifat iboralar. Mazkur qolipli sifat iboralarda tayanch komponent sifat leksemasi bilan ifodalanadi, qolgan notayanch komponentlar turli grammatik qo‘shimchalarni olib sintaktik aloqani hosil qiladi va yaxlitlashadi.

2.1. ot+ot+fe’l qolipli sifat iboralar. Bunda notayanch komponentlar hisoblangan ot turkumidagi leksemalar nisbatlovchi va kelishik shakllaridan birini olib, tayanch komponent esa o‘tgan zamon sifatdoshi shaklidagi fe’l bilan ifodalanadi: *burganing ko‘zini*

ko‘rgan, gapini birovga bermaydigan, ilonning yog‘ini yalagan, shaytonga dars beradigan va shu kabilar.

2.2. ot+ot+sifat qolipli sifat iboralar. Ushbu qolipli sifat iboralarda ikkala qism ham ismlarga kiruvchi so‘zlar bilan shakllanayotgani uchun ularning grammatik jihatdan bog‘lanishida bevosita kelishik, egalik (nisbatlovchi) shakllarning o‘rni muhim hisoblanadi: *aql ko‘zi ko‘r, ona sutiday pok, yuz amri shirin* va shu kabilar.

2.3. Har xil turkum leksemalaridan tarkib topgan uch komponentli sifat iboralar. *Mulla mingan eshakday, gap ko‘tara olmaydigan, dumi yulingan musichaday, aytgan joyidan kesadi, achchig‘i burnining ustida* va shu kabilar.

2.4. To‘rt va undan ko‘p komponentli sifat iboralar. “*Gapi og‘zidan tushib ketadigan”, “qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan”* to‘rt komponentli; *“dunyoni suv bossa, to‘pig‘idan kelmaydi”, “qozon ham moy, cho‘mich ham”,* besh komponentli; *“chumchuq pir etsa, yuragi shir etadi”, “oldidan kelsa, tishlaydi, ketidan kelsa, tepadi”* olti komponentli; *“o‘limdan xabarim bor, bu gapdan xabarim yo‘q”* yetti komponentli.

III. Ravish iboralar. O‘TILdagi mavjud iboralarning 7%ini ravish iboralar tashkil etdi. Ular ham nutqimizda faol qo‘llaniluvchi iboralardan hisoblanib, tuzilishi jihatdan ko‘proq birikmaga tengdir. Shuning uchun bunday ibora komponentlarining bog‘lanib, yaxlitlanishida sintaktik shakl qo‘shimchalari muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, ularning ayrimlari komponenti tarkibida *-dek/-day* (o‘xshatish-qiyoslash qo‘shimchalari), *-(i)b/-(a)y* (ravishdosh formalari) qo‘shimchalari uchraydi. O‘TILda mavjud bo‘lgan ravish iboralarning ikki komponentli va yetti komponentli ekanligi aniqlandi. Ravish iboralarning asosan quyidagi qoliplari mavjud:

3.1. Ikki komponentli ot+ot qolipli ravish iboralar. Bunday qolipli ravish iboralarning komponentlari ot turkumiga oid leksemalar bo‘lganligi uchun shakllanib grammatik yaxlitlanishida nisbatlovchi (egalik), kelishik qo‘shimchalarining o‘rni muhim: *tumshug‘i ostida, miridan sirigacha, amri mahol, ipidan ignasigacha, jar yoqasida, joni halak, jon talvasasi* va shu kabilar.

3.2. Ikki komponentli ot+fe’l qolipli ravish iboralar. Ravish iboralardagi ma’no tarkibidagi komponentlarning umumiy yaxlitligidan hosil bo‘ladi, ya’ni tayanch qism vazifasi aynan biriga bog‘liq emas: *tuprog‘i sovimay, tishida tishlab, tuprog‘i sovimasdan, xo‘roz qichqirmasdan, xoda yutganday* va shu kabilar.

3.3. Uch komponentli ot+ot+fe’l qolipli ravish iboralar. Kam bo‘lsa-da, mazkur qolipli ravish iboralar ham uchraydi va asosan holat ma’nosini ifodalaydi: *jon qulog‘ini tutib, tomdan tarasha*

tushganday, oyog‘ini qo‘liga olib va shu kabilar.

3.4. To‘rt va undan ortiq komponentli ravish iboralar. “*Yetti uxlab, tushiga kirmagan”, “tuya hammomni havas qilganday”, “ot bilan tuya bo‘larmidi”, “to‘ydan oldin nog‘ora chalmoq”, “sichqonning ini ming tanga”* to‘rt komponentli; *“oy tuynukka, arava eshikka kelganda”, “siz aytgan tollar kesilib ketgan”, “boshimni barkash, yelkamni obkash qilib”, “hayitdan keyin xinani ketingga qo‘y”* besh komponentli; *“suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib”* olti komponentli.

IV. Ot iboralar. O‘zbek tilida juda kam miqdorni tashkil qiluvchi (40 ta atrofida) ot iboralar ham mavjud, asosan, birikma shaklida bo‘ladi. Ot iboralar deyarli *ot+ot* qolipida uchraydi, egalik va unga mos kelishik shakllaridan birini olib o‘zaro aloqaga kirishadi va ma’nosi yaxlitlashadi. Ularning aynan biri tayanch ma’no vazifasini bajarishga xoslanmagan. Ma’no tarkibidagi komponentlarning maxraj (ustama) ma’nosidan anglashiladi. Masalan, *oq fotiha, o‘lim changali, kalavaning uchi, ko‘zining oq-u qorasi, kosa tagida nimkosa, quyosh tig‘i, gapning oqimi, dil yarasi, dard ustiga chipqon* va shu kabilar.

Shuningdek, yuqorida asosiy qolipli tuzilishga ega bo‘lgan iboralardan tashqari: *sanamay sakkiz dema* – fe’l+son+fe’l, *o‘zidan ketmoq, o‘zidan tinmoq, o‘ziga kelmoq* – olmosh+fe’l, *ikki qo‘lini burniga suqib, besh barmog‘ini og‘ziga tiqmoq* – son+ot+ot+fe’l kabi tuzilishga ega har xil turkumga oid bo‘lgan iboralar, shuningdek, to‘rt va undan ko‘p komponentli iboralar kam miqdorni tashkil qilgani bois asosiy qolip sifatida tahlil qilinmadi. Iboralar tarkibidagi komponentlarning o‘zgarishi (so‘z tushishi yoki qo‘shilishi, grammatik qo‘shimchalarning qo‘shilishi) ularning qisman semasiga ham ta’sir qiladi.

Keltirilgan misollar izohli lug‘atlarda ko‘p ma’noli iboralarning barcha ma’nolarini iloji boricha to‘liq qamrab olish va har bir ma’no uchun turli manbalardan illyustrativ misollar tanlash zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida izohli lug‘atlarga iboralarni tanlash va ularga daliliy misollar keltirishda quyidagi mezonlarga tayanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi:

Qo‘llanish faolligi. Lug‘atga kiritiladigan iboralar umumiste’molda, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda keng qo‘llanadigan birliklar bo‘lishi lozim. Ibora qo‘llanish chastotasini aniqlashda lingvistik korpuslar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ma’no aniqligi va polisemantiklik. Lug‘atga kiritiladigan iboralar aniq va barqaror ma’nolarga ega bo‘lishi zarur. Bunda monosemantik iboralar bilan bir qatorda polisemantik iboralar ham

qamrab olinishi, ammo ularning har bir ma’nosi alohida raqamlangan holda, tegishli kontekstual misollar bilan asoslanishi lozim.

Yetarli illyustrativ materialning mavjudligi. Ibora ma’nosi turli uslubiy qatlamlarga mansub manbalar (badiiy adabiyot, publitsistika, so‘zlashuv nutqi, rasmiy matnlar)dan olingan misollar bilan asoslanishi kerak. Har bir ma’no uchun kamida bitta, imkon qadar bir nechta kontekstual misol keltirilishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

Mamatov A., Boltayeva B. (2018) *Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi*. – Toshkent,

Раҳматуллаев Ш. (1978) *Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати.* – Тошкент: Ўқитувчи,

Раҳматуллаев Ш. (1970) Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан,

Аюпова Р.А. (2013) *Фразеология и фразеография русского и английского языков*. – Казан: Изд-во КФУ,

Бердиёров Ҳ., Расулов Р., Йўлдошев Б. (1976) *Ўзбек фразеологиясидан материаллар.* – Самарқанд,

Раҳматуллаев Ш. (1978) *Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати*. – Тошкент: Ўқитувчи,

Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. (2022) *O‘zbek tili frazeologik lug‘ati.* – Toshkent,

O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2023) 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom,

Bo‘riyev I. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida iboralarning shakliy-struktur tavsifi // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi – Xiva: 2022-9/4. –B. 7–10.

Bo‘riyev I. O‘zbek tili iboralarida sinonimiya, omonimiya hamda antonimiya hodisalari // Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. – Termiz, 2023-yil 5-son ISNN: 2181-1741 ISNN: 218l-1725. – B. 76–80.

ANALYSIS OF COMPONENTS OF PHRASES: BASED ON MATERIALS FROM O‘TIL (6 volumes; 2022)

Islom Bo‘riyev [1]

Abstract

This article conducts a component analysis of phrases based on the materials of the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language (6 volumes; 2022). The study analyzes the phrases in terms of form and structure, and determines the number of components (from two to nine components), grammatical connection methods, and word classes in their composition. According to statistical data, 80% of the phrases in the Uzbek Language are verb phrases, 12% are adjective phrases, 7% are adverbial phrases, and the rest are noun phrases. Phrases are mainly formed in the following patterns: noun+verb, noun+adjective, noun+noun, adjective+verb, and multi-component phrases are characterized by the fact that they are equivalent to sentences. The article also briefly discusses the effect of changes in phrase components (deletion or addition of words, addition of grammatical suffixes) on their semantics. In addition, 11 measurement criteria were developed based on the analysis of existing dictionaries to include expressions in explanatory dictionaries and form a system of lexical descriptions in the Uzbek language. It was explained that these criteria cover aspects such as the integrity of the expression’s meaning, activity of use, stylistic affiliation, synonym and antonym relationships, structural stability, etymological foundations, provision of illustrative examples, grammatical model, degree of polysemanticity, variantness, and scope of application.

Key words: Compound phrases, sentence phrases, noun+verb, noun+adjective, noun+noun+verb types of phrases.

Adabiyotlar

Mamatov A., Boltayeva B. (2018) Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi. – Toshkent,

[1] *Islom Boriev* – Teacher at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
E-mail: islomboriyev122@gmail.com
ORCID ID. https://orcid.org/0009-0000-2552-6365
For citation: Boriev I.E. 2025. “*Analysis of components of phrases: based on materials from O‘TIL (6 volumes; 2022)”*. Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 72-79. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/NGAR1493

Раҳматуллаев Ш. (1978) Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи,

Раҳматуллаев Ш. (1970) Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан,

Аюпова Р.А. (2013) Фразеология и фразеография русского и английского языков. – Казан: Изд-во КФУ,

Бердиёров Ҳ., Расулов Р., Йўлдошев Б. (1976) Ўзбек фразеологиясидан материаллар. – Самарқанд,

Раҳматуллаев Ш. (1978) Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи,

Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. (2022) O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent,

O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2023) 6 jildli. 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom,

Bo‘riyev I. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida iboralarning shakliy-struktur tavsifi // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi – Xiva: 2022-9/4. –B. 7–10.

Bo‘riyev I. O‘zbek tili iboralarida sinonimiya, omonimiya hamda antonimiya hodisalari // Filologik tadqiqotlar: Til, adabiyot, ta’lim. – Termiz, 2023-yil 5-son ISNN: 2181-1741 ISNN: 218l-1725. – B. 76–80.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com